

TUXTANAZAROV Dilmurod Solijonovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari kafedrasi dotsenti, PhD

RASMIY DINIY KONTENTLARNI SAMARALI O'RGANISHGA YORDAM BERUVCHI TIZIM STRUKTURASINI ISHLAB CHIQISH

РАЗРАБОТКА СТРУКТУРЫ СИСТЕМЫ ПОДДЕРЖКИ ЭФФЕКТИВНОГО ИЗУЧЕНИЯ ОФИЦИАЛЬНОГО РЕЛИГИОЗНОГО КОНТЕНТА

DEVELOPING A SYSTEM STRUCTURE TO SUPPORT THE EFFECTIVE LEARNING OF OFFICIAL RELIGIOUS CONTENT

Annotatsiya. Ushbu maqolada internetdagi foydali va tasdiqlangan diniy kontentlarni o'rgatuvchi mobil ilovalar tahlil qilingan. Tasdiqlangan diniy kontentlarni jamlagan mobil ilovalar o'rganilgan va tahlil qilingan. Mobil ilovalarni ishlab chiquvchi tizimlarni tanlash keltririlgan. Tasdiqlangan diniy kontentlarni samarali o'rganishga yordam beruvchi mobil ilova strukturasi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kibermakon, bloklash, sozlash, internet, salbiy axborot, kontent, mobil ilova, tizim, foydalanuvchi, dastur, android, monitoring, cheklov.

Аннотация. В данной статье анализируются мобильные приложения, предоставляющие доступ к достоверному религиозному контенту. Проведен анализ существующих приложений с проверенным религиозным контентом. Представлен обзор систем разработки мобильных приложений. Разработана структура мобильного приложения для эффективного изучения религиозного контента.

Ключевые слова: Киберпространство, блокировать, настройка, интернет, негативная информация, контент, мобильное приложение, система, пользователь, программа, андроид, мониторинг, ограничение.

Annotation. This article analyzes mobile applications that teach useful and verified religious content on the Internet. Mobile applications containing verified religious content were studied and analyzed. A

selection of mobile application development systems is presented. The structure of a mobile application has been developed to help effectively study approved religious content.

Keywords: Cyberspace, block, setting, internet, negative information, content, mobile application, system, user, program, android, monitoring, restriction.

KIRISH

Gadgetlar turmush tarzimizning ajralmas qismiga aylanib, ko'plab sohalarda qulaylik va samaradorlikni oshirmoqda. Ular hayotimizni yanada osonroq va unumliroq qilish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, ular bilan bog'liq xavfsizlik va maxfiylik masalalarini ham unutmaslik kerak. Janubiy Koreyalik olimlar 40 mingdan ortiq yoshlarni o'rganib chiqdi va kuniga o'rtacha 4 soatdan ortiq smartfondan foydalanishyotganini aniqlashdi. Bu jarayonni Respublikamizda ham kuzatish mumkin. Chunki bugungi kunda maktab o'quvchilaridan tortib katta yoshgacha bo'lgan mobil operatorlar foydalanuvchilarida telefon va planshetlariga ega. Shu bilan bir qatorda "Aqlli" qurilmalardan ta'lim olishda va masofaviy ta'lim tizimlarida foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

O'zbekiston Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni diniy-ma'rifiy sohada ta'lim tizimini yuqori bosqichga ko'tarish, istiqbol rejalarini ishlab chiqish hamda yangi islohotlarni amalga oshirishga zamin bo'ldi. Shu sababdan ko'plab yangi kitoblar, o'quv-qo'llanmalar nashrdan chiqdi. Bu holat kitoblardagi ishonchli ma'lumotlarni odamlarga qulay yetkazish yo'llarini talab qilmoqda. Shu yo'llardan biri foydali kontentlarni jamlagan mobil ilovalar yaratishdir. Bu ishlar foydalanuvchilarga ilmlarni foydalanish va olib yurishga qulay holatga keltirishga asos bo'lmoqda.


ASOSIY QISIM

Yoshlarning diniy ma'lumotlarni qabul qilishdagi zaifliklari hozir kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bugungi zamonaviy axborot asrida dinning kuchi va ko'lamidan faqatgina bunyodkorlik yo'lida emas, balki vayronkor maqsadlar yo'lida foydalanish ham xavotirga sabab bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda terrorizm bilan bog'liq 1 787 ta hujum sodir etilgan, natijada 13 759 kishi halok bo'lgan va

16 683 kishi og‘ir tan jarohati olgan. Din nomidan noto‘g‘ri ta‘limotlar va buzilgan g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi kuchlar ko‘pincha yetarli hayot tajribasiga ega bo‘lmagan yoshlarni nishonga oladi, ulardan o‘z manfaatlarini yo‘lida foydalanadi.

Jamiyatdagi an‘anaviy diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularning o‘rniga aldov va zo‘ravonlik bilan turli g‘oyalarni targ‘ib qilish diniy ekstremizm deb ataladi. Diniy ekstremizmning asosi mutaassib fikrlar va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Terrorizm esa, keng aholi qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallashga qaratilgan jinoyat faoliyatidir.

Diniy ilmlarni, biz tanlagan duo va zikrlarni o‘rgatuvchi yo‘nalishdagi tizimlar juda ko‘p. Ammo ular orasida tasdiqlangan, turli hil aqidaparastlik g‘oyalaridan uzoq bo‘lgan dasturlar barmoq bilan sanarli.



1-rasm. Diniy tushunchalarni o‘rgatuvchi mobil ilovalar

Misol qilib Islom.uz, Zikr va duolar, Musulmonlar Qo‘rg‘oni, Tonggi zikrlar, Qur‘on va Sunnatdagi duolar, Namoz va Duolar.


Bu tizimlar ichidagi “Zikr va duolar” mobil ilovasiga to‘xtalib tahlil qilaylik. Ushbu mobil ilova imom Navaviyning al-Azkor kitoblari asosida tayyorlangan. Nashrga esa Ustoz Anvar Ahmad tomonidan tayyorlangan. Dastur o‘zining oddiy va o‘qishga qulay interfeysi bilan boshqa dasturlardan ajralib turadi. Dasturda Tongi va tungi duolar, masjidga oid duolar va turli hayotimizga oid vaziyatlarda qilinishi kerak bo‘lgan duo hamda zikrlar jamlangan.

Diniy ma‘lumotlarni tushunish va o‘rganishda tasdiqlangan manbalarga tayangan holda ishlash, yangi davrning dolzarb talabi hisoblanadi. Bu yondashuv, o‘quvchilarga diniy bilimlarni ilmiy asosda va to‘g‘ri talqin etish imkonini beradi.

Diniy sohadagi norasmiy manbaalar yoki manbaasi aniq bo‘lmagan ma‘lumotlar asosida yaratilgan mobil ilovalar jamiyat orasida ziddiyatlar,

o‘zaro-kelishmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ham biz ushbu ishda internetdagi foydali va tasdiqlangan materiallarni zamonaviy texnologiyalar orqali yoshlarga foydalanish uchun qulay holatda yetkazishni asosiy masala qilib belgiladik.

Dastlab har qanday tizimni yaratishda uni loyihalash talab etiladi. Yaratilayotgan tizimni dastlab loyihalashdan boshlamasdan kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Chunki yaratilayotgan tizimni ishlab chiqish jarayonini nazorat qilib bo‘lmaydi. Biz yarartmoqchi bo‘lgan “Avrodi Sharif” mobil ilovamizning umumiy strukturaviy tuzilishi quyidagi sxemada keltirilgan:



2-rasm. Dastur umumiy strukturasi

Yaratayotgan mobil ilovamizni kitob nomidan kelib chiqib “Avrodi Sharif” deb nomlanadi. Bu ilova Ijodxona, Kunlik zikrlar, Kitob haqida, duo va zikrlarni aytish tartibi kabi bo‘limlardan tashkil topadi. Quyida ular haqida qisqacha ma‘lumot beramiz:

- dastlab dastur ishga tushganda tanishtiruv oynasi (Splash screen) ochiladi. Bunda mobil ilova logosi ekranda paydo bo‘ladi va 3 soniyadan so‘ng asosiy oynaga o‘tiladi;
- ijodxona bo‘limida Ustoz Mirzo Kenjabek tomonidan yozilgan she‘r va to‘rtliklar joylanadi;
- ushbu Avrodi Sharif bo‘limida kitob haqida umumiy ma‘lumotlar beriladi. Undan tashqari hozir kitob asl nusxasi qaysi manbaalarda saqlanishi, ishonchlilik darajasi va qachon yozilgani to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni topish mumkin bo‘ladi;
- duo fazilati bo‘limida islom dinida duo va zikrlarni qanday darajada ulug‘ligi, ularni bajarish tartibi tushuntiriladi;
- har kunlik zikrlar bo‘limida insonga kun davomida aytishi mumkin bo‘lgan duo va zikrlarning aytish tartibi o‘zbek va arab tillarida beriladi;
- hafta kunlari uchun zikrlar bo‘limida hafta kunlari uchun Dushanba, Seshanba, Chorshanba va boshqa kunlar uchun xos duo va zikrlarni aytish

tartibi yozib chiqiladi;

– ijtimoiy tarmoqlar uchun ham alohida link beriladi;

– Sozlamalar bo‘limida esa yozuv shriftini o‘zgartirish, dasturni kunduzgi va tungi rejimga o‘tkazish, dastur yaratuvchisiga savol yo‘llash imkoniyatlari mavjud bo‘ladi.



3-rasm. Har kungi zikrlar bo‘limi strukturasi


Quyida tarmoqlangan bo‘limlarni ko‘rib chiqamiz. Misol uchun Har kungi zikrlar bo‘limini umumiy strukturasi ko‘rib chiqsak.

Har kunlik zikrlar bo‘limida insonga kun davomida aytishi mumkin bo‘lgan duo va zikrlarning aytish tartibi o‘zbek va arab tillarida beriladi. Bu bo‘limda duo va zikrlar 2 turga bo‘lingan bo‘lib, birinchi turdagilari Qur‘on oyatlarida kelgan duolar bilan to‘ldirilgan. Ikkinchi turdagilar esa hadis kitoblarida kelgan duolar bilan to‘ldirilgan.



4-rasm. Hafta kunlari uchun zikrlar bo‘limi strukturasi.

Hafta kunlari uchun zikrlar bo‘limida hafta kunlari uchun Dushanba, Seshanba, Chorshanba va boshqa kunlar uchun xos duo va zikrlarni aytish tartibi yozib chiqiladi.



5-rasm. Sozlamalar bo‘limi strukturasi

Sozlamalar bo‘limiga o‘tish uchun alohida tugma(button) ishlab chiqiladi. Unda to‘rt imkoniyat bo‘lishi reja qilingan. Sozlamalar bo‘limida yozuv shriftini o‘zgartirish, dasturni kunduzgi va tungi rejimga o‘tkazish, dastur yaratuvchisiga savol yo‘llash imkoniyati va play marketda biz ishlab chiqqan dasturlar umumiy linki mavjud bo‘ladi.

XULOSA

Hozirda rivojlanib borayotgan axborot asrida yoshlarning turli xil axborot xurujlaridan himoya qilish maqsadida har sohada turli xil izlanishlar olib borilmoqda. Biz yaratayotgan mobil ilova boshqa mobil ilovalardan qulaylik tarafi va ishonchlilik darajasi bilan ajralib turadi. Bunga asos qilib unda keltirilgan ma‘lumotlar ishonchli manbadan Avrodi Sharif kitobidan olinganligi va ishlatishga qulayligini keltirish mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Adnyani, L. D. S., Mahayanti, N. W. S., & Suprianti, G. A. . (2020). PowToonBased Video Media for Teaching English for Young Learners: An Example of Design and Development Research. 394(January 2012), p. 221–226. <https://doi.org/10.2991/assehr.k.200115.036>
2. Anita, A. S., & Kardenia, A. (2021). the Effect of Using Powtoon Toward Students ' Motivation in Writing. 6(1), p. 1–13.
3. Tuxtanzarov D.S., Kurganbayev J.I., Kibermakonda yosh avlodni salbiy axborotlardan ximoyalash va nazorat qilish tizimlari // Islom tafakkuri (Maxsus son) 2022, 122-127 b.
4. Tuxtanzarov D.S., Maxkamov A.A., Dadamuhamedov A.I., Axborotlashgan makonda yoshlar ongiga salbiy axborotlarning ta'siri // Islom tafakkuri (2-son) 2022, 244-247 b.
5. Tuxtanzarov D.S., Bekchanova S.A., Kurganbayev J.I., Zamonaviy tizimlar yordamida internetda yosh avlodni salbiy axborotlardan himoylash va ularni nazorat qilish // Islom tafakkuri (Maxsus son) 2021, 131-134 b.
6. Tuxtanzarov D.S., Kurganbayev J.I., Internetda yosh avlodni monitoring qilish tizimi / Islom tafakkuri (2-son) 2023, 123-128 b.
7. <https://famisafe.wondershare.com/>
8. <https://www.youtube.com/>
9. <https://gs.statcounter.com/social-media-stats/all/uzbekistan>